


SHUHRATING PORLASIN TOKI BOR JAHON!



SHUHRATING PORLASIN TOKI BOR JAHON!

Termiz shahridagi San'at saroyida O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasining 30 yilligiga bag'ishlangan bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

Tadbirda Surxondaryo viloyati hokimligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Surxondaryo viloyat bo'limi, Termiz shahar hokimligi, davlat va jamoat tashkiloti vakillari, harbiylar, sportchilar, adabiyotshunoslar va yoshlar ishtirok etdi.

Anjumanda so'zga chiqqanlar Madhiya – qalbida o'z Vataniga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bor har qanday kishida milliy g'urur, o'ziga xos faxr, eng muhimi yurtga mehr uyg'otadi. Bu milliy timsolda xalqning o'tmishi, buguni va kelajagi, shuningdek, ziynati, orzu-o'yi, maslak-maqsadi mujassam deya ta'kidlab o'tdilar.

Tantanali tadbirda harbiy orkestr va san'atkorlar tomonidan ijro etilgan kontsert dasturi barchaga bayram kayfiyatini ulashdi.

